OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA OILALI TALABA QIZLAR IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH VA ZO‘RAVONLIKKA QARSHI KURASHISHDA HAMKORLIK MEXANIZMLARI

Jamoldinova Odinaxon Rasulovna
A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
professori, p.f.d.

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan oilali talaba qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning ta’lim olish va jamoat hayotidagi ishtiroki uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda zo‘ravonlik holatlarining oldini olishda samarali hamkorlik mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, oliy ta’lim muassasasi, oila, mahalla, xotin-qizlar tashkilotlari va ijtimoiy-psixologik xizmatlar o‘rtasidagi hamkorlikni tizimli tashkil etish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: oilali talaba qizlar, ijtimoiy faollik, oliy ta’lim, zo‘ravonlikning oldini olish, gender tenglik, oila, mahalla, psixologik xizmat, hamkorlik mexanizmi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar negizida mamlakatimizning buguni va ertasi bo‘lgan – yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish dolzarb masala sifatida ilgari surilmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida talaba qizlar ijtimoiy faolligini oshirish jarayonlari ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan chuqur o‘rganilmoqda.

Ijtimoiy faollik keng tushuncha bo‘lib, u har bir kishining hayotdagi, turmushdagi tutgan o‘rni, ijtimoiy voqelik, unda yuz beradigan o‘zgarish, yangiliklarga munosabati, shuningdek uning yaratuvchilik borasidagi ishtiroki kabilardagi faolligini anglatadi. Shaxsda ijtimoiy faollikni shakllantirish va tarbiyalashning omillarini anglash esa pedagogika, psixologiya va sotsiologiya fanlarining vazifalaridan hisoblanadi. Bundan ko‘rinadiki, ijtimoiy faollik bir vaqtning o‘zida ham falsafiy, ham sotsiologik muammodir.

“Ijtimoiy faollik” atamasi ommalashgan bo‘lishiga qaramay, g‘oyatda qarama-qarshi talqin qilinadi, ilmiy adabiyotda bu atamani turli ma’nolarda tavsiflash mavjud. Bu “ijtimoiy faollik”ning shakl va turlari, namoyon bo‘lishining har xilligi bilan bog‘liq.

F.A.Ikromov ijtimoiy faollik – shaxsning maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati bo‘lib, ijtimoiy voqelikka nisbatan individual munosabati va tizimli xatti-harakatlarining yuksak ko‘rinishini ifodalovchi tushuncha sifatida talqin etadi[1].

Tadqiqotchi N.Xolmizayevning fikricha yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim[1]:

- mehnat va muloqot jarayonida faollik ko‘rsatishga doir layoqatlarini rivojlantirish va rag‘batlantirish;
- ijtimoiy voqelikda yuz beradigan voqea, hodisa, yangilik va o‘zgarishlarni to‘g‘ri anglash, tushunish, mantiqiy xulosa chiqarishga o‘rgatish;
- o‘ziga berilgan har bir topshiriqni mas’uliyat, deb bilgan holda uni sidqidildan bajarishga intilishni shakllantirish.

Tadqiqotchilar N.M.Majidov, Sh.V.Azizovalar ilmiy izlanishlari natijasida “ijtimoiy faollikni tarbiyalash – bu nafaqat jamoat ishlarida ishtirok etish darajasining oshishi, balki yoshlarning axloqiy yo‘nalganligini aniqlovchi motivlarning shakllanishi hamdir”[2] degan xulosa keladi.

X.M.Tojiboyeva ilmiy tadqiqot ishida “ijtimoiy faollik – shaxsning maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati bo‘lib, ijtimoiy voqelikka nisbatan individual munosabati va tizimli xatti-harakatlarining yuksak ko‘rinishi”ni ifodalovchi tushuncha sifatida talqin etgan[3].

Tadqiqotlardan ko‘rinib turibdiki, shaxsning ijtimoiy faolligi ijtimoiy voqelikka nisbatan individual munosabati va tizimli xatti-harakatlarining ko‘rinishini ifodalaydi. Demak, talaba qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish orqali uning o‘zligini anglash, ijtimoiy voqea-xodisalarni tahlil qilish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatini bildirish va to‘g‘ri yechim topishga o‘rgatiladi.

Ta’kidlash joizki, xotin-qizlarning ta’lim olishi, kasbiy va shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, jamiyat hayotida faol ishtirok etishi barqaror taraqqiyotning muhim

[1] Ikromov F.A. Mustaqil ta’limni tashkil etish asosida talabalarning ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasinishakllantirish metodikasi / ped.f.b.f.d.disser. – Toshkent, 2026. – B. 20.

[2] Majidov N. M., Azizova SH. V. Ijtimoiy faollik shakllanishida amaliyotning o‘rni // Sovremennoye obrazovaniye (Uzbekistan). 2015. №3. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/izhtimoiy- faollik-shakllanishida-amaliyotning-rni (murojaat vakti: 25.03.2025).

[3] Tojiboyeva X.M. O‘quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik tizimi: Diss. ped.ka fanlari doktori. 2018.

omillaridan biri hisoblanadi. Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan oilali talaba qizlarning ta’lim va oilaviy majburiyatlarni uyg‘unlashtirishi, ijtimoiy faolligini saqlab qolishi hamda o‘z huquq va manfaatlarini himoya qila olishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilali talaba qizlar bir vaqtning o‘zida talaba, oila a’zosi va jamiyatning faol subyekti sifatida bir nechta ijtimoiy rolni bajaradilar. O‘qish, oilaviy mas’uliyat, farzand tarbiyasi va ijtimoiy faoliyatni birgalikda olib borishda turli qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bunday holatlarda ta’lim muassasasining qo‘llab-quvvatlashi, oila va mahalla bilan hamkorlik qilishi muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, oiladagi tazyiq va zo‘ravonlik holatlari xotin-qizlarning ta’lim olishi, kasbiy rivojlanishi va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois zo‘ravonlikning oldini olish faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar vazifasi emas, balki oliy ta’lim muassasalari, oila, mahalla, psixologik xizmatlar va jamoat tashkilotlarining hamkorlikdagi vazifasidir.

Oilali talaba qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda, avvalo, ularning ehtiyojlarini o‘rganish va individual yondashuvni ta’minlash zarur. Buning uchun oliy ta’lim muassasalarida talaba qizlarning ijtimoiy, psixologik va ta’limiy ehtiyojlarini muntazam o‘rganib borish, ularga maslahat va amaliy ko‘mak ko‘rsatish tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Oilali talabalar uchun moslashuvchan ta’lim sharoitlarini yaratish, ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, psixologik maslahat xizmatlarini kuchaytirish va talabalarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish ularning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Oliy ta’lim tizimida masofaviy ta’lim shaklining joriy etilganligi, oliy ta’lim muassasalari tomonidan homilador talaba qizlar uchun onlayn ta’lim imkoniyatlarining yaratilishi talaba qizlarning shaxsiy va kasbiy sifatlari shakllanishiga, ijtimoiy faol fuqarolik ko‘nikmalarining rivojlanishiga ko‘maklashadi.

Talaba qizlarni ijtimoiy faollikka jalb etishda quyidagi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratish lozim:

oilali talaba qizlar ishtirokida ijtimoiy-ma’rifiy tadbirlar va davra suhbatlarini tashkil etish;

ularning ilmiy-tadqiqot, innovatsion va volontyorlik loyihalarida ishtirokini rag‘batlantirish;

liderlik, muloqot, huquqiy savodxonlik va konfliktlarni konstruktiv hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

“Oqila qizlar”, “Yetakchi qizlar” klublari faoliyatini rivojlantirish;

oilaviy mas’uliyat va ta’lim jarayonini samarali uyg‘unlashtirish bo‘yicha treninglar o‘tkazish;

psixologik va huquqiy maslahat xizmatlarini ommalashtirish.

Zo‘ravonlikning oldini olishda esa profilaktikaga asoslangan yondashuv muhimdir. Bu borada talaba qizlarning o‘z huquqlarini bilishi, zo‘ravonlikning turlari va uning salbiy oqibatlari haqida xabardorligini oshirish, murojaat qilish mexanizmlari to‘g‘risida tushuntirish ishlarini olib borish zarur.

Oliy ta’lim muassasalarida oilali talaba qizlar ijtimoiy faolligini oshirish va zo‘ravonlikka qarshi kurashishda “OTM – oila – mahalla – psixolog – xotin-qizlar faoli – huquqiy va ijtimoiy xizmat” modeli eng samarali hamkorlik mexanizmi sifatida ijobiy natijaga erishish imkonini beradi.

Oliy ta’lim muassasasi talaba qizlarning ta’lim olishi va ijtimoiy faolligi uchun zarur sharoitlarni yaratadi, psixologik va ma’naviy-ma’rifiy qo‘llab-quvvatlashni tashkil etadi. Oila esa talabaning ta’lim olishiga ijobiy munosabatda bo‘lishi, uning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy faolligini qo‘llab-quvvatlaydi. Mahalla va xotin-qizlar faollari esa oilaviy muhitni o‘rganish, profilaktik tadbirlarni tashkil etish va zarur hollarda tegishli tashkilotlarga yo‘naltirishda muhim o‘rin tutadi.

Psixologik xizmatning asosiy vazifasi talaba qizlarda emotsional barqarorlikni shakllantirish, nizoli vaziyatlarni barvaqt aniqlash, maslahat berish va zarur hollarda tegishli mutaxassislarga yo‘naltirishdan iborat bo‘lsa, ijtimoiy xizmat zo‘ravonlikka duch kelgan yoki zo‘ravonlik xavfi mavjud bo‘lgan talaba qizlar bilan ishlashda maxfiylik, xavfsizlik, inson qadrini hurmat qilish va individual yondashuv tamoyillariga qat’iy rioya etishi muhim.

Oliy ta’lim muassasalarida oilali talaba qizlarni qo‘llab-quvvatlash va zo‘ravonlikning oldini olish maqsadida oliy ta’lim muassasalarida tashkil etilgan Qizlar tashabbuslari va maslahat markazi tomonidan:

“Oilali talaba qizlarni qo‘llab-quvvatlash” dasturini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

OTMda oilali talaba qizlar bilan ishlashga mas’ul koordinator yoki maslahat guruhi faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

talaba qizlar uchun psixologik, huquqiy va ijtimoiy maslahat xizmatlarini birlashtirish;

zo‘ravonlik holatlarini barvaqt aniqlash maqsadida talaba qizlar bilan muntazam ravishda anonim so‘rovnomalar va ijtimoiy-psixologik monitoring o‘tkazish;

OTM, mahalla va oila o‘rtasida hamkorlik algoritmini ishlab chiqish va turli vaziyatlarda harakat qilish tartibini belgilash;

oilali talaba qizlarning ilmiy, ijtimoiy, volontyorlik va yetakchilik faoliyatidagi ishtirokini rag‘batlantirish;

zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha huquqiy savodxonlik va psixologik profilaktika treninglarini muntazam tashkil etish;

talaba qizlarning muammolarini ochiq muhokama qilish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash muhitini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim muassasalarida oilali talaba qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularni zo‘ravonlikdan himoya qilish kompleks hamda tizimli yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda oliy ta’lim muassasalarining oila, mahalla, psixologik va ijtimoiy xizmat, xotin-qizlar tashkilotlari va boshqa institusional organlar bilan hamkorligi zarur. Mazkur mexanizmning samarali ishlashi oilali talaba qizlarni jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘sha oladigan faol, bilimli va mustaqil shaxs sifatida qo‘llab-quvvatlash, ularning ta’lim olishi, ijtimoiy tashabbuslari va kasbiy rivojlanishi uchun qulay muhit yaratish, zo‘ravonlikning oldini olish, oila va jamiyat barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgasha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-5847-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/4545884

2. Djamilova N. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarida tashabbuskorlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari.: Avtoref. dis.ped.DSc. – T.,2019 y. – 13-14.

3. Ikromov F.A. Mustaqil ta’limni tashkil etish asosida talabalarning ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish metodikasi / ped.f.b.f.d.disser. – Toshkent, 2026. – B. 20.

4. Majidov N. M., Azizova SH. V. Ijtimoiy faollik shakllanishida amaliyotning o‘rni // Sovremennoye obrazovaniye (Uzbekistan). 2015. №3. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/izhtimoiy- faollik-shakllanishida-amaliyotning-rni (murojaat vakti: 25.03.2025).

5. Rahmonova M.Q. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida ijtimoiy faollikni rivojlantirish. Dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand, 2019. 13-bet.

6. Tojiboyeva X.M. O‘quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik tizimi. Dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2018. 14-bet.

7. Xolmirzayev N.N. Ijtimoiy faollik va uning darajalari // Scientific progress. 2021. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/izhtimoiy-faollik-va-uning-darazhalari.